

ERKIN VOHIDOV TARJIMALARIDA MILLIY USLUB VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Ahmadjonova Zuhra Farhod qizi

*O‘zbekiston Milliy universiteti xorijiy
filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi
zuhraahmadjonova18@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidovning tarjimonlik faoliyati milliy uslub va umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallifning tarjimalari orqali o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlari, xalqona iboralar va poetik ohanglari hamda tarjima nazariyasidagi milliy ruh va ijodiy yondashuv yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, “Faust”, “Eron taronalari”, Yesenin, Pushkin, Lermontov.

Tarjima – bu ikki til o‘rtasidagi oddiy ko‘prik emas, ikki madaniyat, ikki ruh, ikki tafakkur o‘rtasidagi mahorat bilan qurilgan badiiy va ma’naviy aloqadir. Bu san’atda tarjimon nafaqat so‘zlarni, balki muallifning fikrini, tuyg‘usini, ruhiy holatini ham boshqa tilga ko‘chiradi. O‘zbek adabiyotiga tarjima san’ati XX asrning o‘rtalaridan kirib kela boshlagan bo‘lsa-da, bu jarayonda Erkin Vohidovning tarjimonlik faoliyati alohida o‘rin tutadi deb ishonch bilan ayta olamiz. Zero, O‘zbekiston Xalq Shoiri Abdulla Oripov "Erkin Vohidov tarjima qilganda, nafaqat mazmunni, balki she’rning ruhiyatini, ohangdorligini va shoirning shaxsiy timsolini ham asarga singdira oladigan san’atkor edi. Uning Aleksandr Blok, Lermontov, Yesenin tarjimalarini o‘qiganda, bu she’rlar bizning tilimizda tug‘ilgandek tuyuladi. Bu – buyuk tarjimonning nishonasidir." deya haq gapni aytgan edi.

Erkin Vohidov Gyote, Yesenin, Pushkin, Rasul Hamzatov va Chingiz Aytmatov kabi mualliflarning asarlarini o‘zbek tilida qayta jonlantib, ularning ruhini milliy ohang bilan uyg‘unlashtirgan mahoratli tarjimondir. Rus shoiri Yeseninning “Eron taronalari” turkumini, nemis yozuvchisi Gyotening “Faust” asarlarini o‘qir ekanmiz, she’rlarni go‘yo ular emas, balki Erkin Vohidov aynan o‘zbek tilida xalqona iboralar, o‘zbekona ohang va hayotiy vaziyatlar orqali ta’sirchan ifodalab berganini his qilamiz. Bu holatda, tarjimonning she’rni tarjima qilishda so‘zma-so‘z ko‘chirishdan ko‘ra, ruhiy uyg‘unlikka e’tibor berganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Erkin Vohidov “Eron taronalari” turkumi va bir qator she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilganda, Yesenin ohangi, she’rlarda yoritilgan iztirob, muhabbat va sog‘inch hislarini saqlab qolish bilan birga, uni o‘zbek o‘quvchisiga ham birdek yetkazib, asarga yanada yaqinlashtiradi.

Go‘daklikdan ma’lum har odam,
Bola boshdan degan gap to‘g‘ri.

Mabodo men shoir bo‘lmasam,
Bo‘lar edim bezori, o‘g‘ri.
Jikkakkina shum bola edim,
Tengdoshlarim ichra "qahramon".
Qaytar edim ko‘chadan doim
Burnim pachoq, usti boshim qon.

Qo‘rqib ketgan onam qoshida
Derdim tutib o‘zimni mahkam:
"Hechqisi yo‘q. Qoqildim toshga.
Ertagacha qolmas o‘rni ham".
Yillar o‘tdi, ketdi bolalik,
Nihoya yo‘q armonlarimga.
Yoshlikdagi sho‘xlik, olovlik
Ko‘chdi she’ru dostonlarimga.

Rus shoiri Sergey Yesenin o‘z she’rlarida bolalik xotiralarini hazil aralash iztirob bilan eslaydi, lekin bu his she’rda achchiq emas, balki samimiy va yurakka yaqin tarzda yoritilganiga guvoh bo‘lamiz. Erkin Vohidov bu she’rni tarjima qilganda, Yeseninning ohangini o‘zbek tilining obrazli va xalqona ifodalari bilan uyg‘unlashtirgan. She’rda rus shoiri o‘zining bolalik xotiralari va shoir bo‘lish jarayonidagi yo‘llarni eslasa, Erkin Vohidov “Go‘daklikdan ma’lum har odam”, “burnim pachoq, usti boshim qon”, “hechqisi yo‘q, qoqildim toshga” misralari bilan shoirning bolalikdagi sho‘xligi, ko‘cha hayoti va yoshlikdagi “qahramonlik”larini o‘quvchiga go‘yo o‘z mahallasida ko‘radigan sho‘x boladek tasvirlab beradi. Erkin Vohidovning shunday tarjimonlik mahoratiga taniqli shoir va yozuvchi Xurshid Davronning: “Erkin Vohidovning tarjimalarida Yeseninning ruhini, ohangini, hatto uning yurak urishini ham his qilish mumkin. Ayniqsa, “Eron taronalari” turkumidagi she’rlar o‘zbek tilida yangidan tug‘ilgandek bo‘ladi” kabi fikrlari orqali yanada amin bo‘lamiz.

Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Behbudiy kabi jadidlarimiz tomonidan boshlangan tarjima maktabi sovet davrining og‘ir yillari, ayniqsa, 1930-50 yillardagi siyosiy tazyiqlar tufayli to‘xtab qoladi. O‘zbek tarjima nazariyasi rivojlanmay, faoliyati sustlashgan bir davrda Erkin Vohidov bu sohada yangi bir bosqichni boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yozuvchi nafaqat tarjima bilan shug‘ullanadi, balki tarjima nazariyasiga ham boshqa bir uslub olib kiradi. Erkin Vohidovning faoliyati jadidlarning tajribasi bilan uyg‘unlashgan holda 70-80 yillarga kelib o‘zbek tarjima maktabiga yangicha yondashuvni olib kirdi, uni badiiylik, ruhiy teranlik va milliy ohang bilan boyitadi. Shu tariqa, Erkin Vohidov 20-30 yil davomida uzilib qolgan

ilmiy-adabiy an'analarni qayta tiklab, uni zamonaviy bosqichga olib chiqadi. Jadid adabiyoti namoyondalari asos solgan tarjima maktabini zamonaviy adabiyotga qaytardi, go'yo yangi jon berdi. O'rtada qolgan katta bir bo'shliqni tarjimalari orqali to'ldirdi- oltin ko'prik bo'la oldi.

Ba'zi asarlar bor – ularni o'qiganda, til boshqa bo'lsa ham, tuyg'u tanish tuyuladi, Erkin Vohidov tarjimalarida aynan shu holatga duch kelamiz. Gyotening "Faust" asarida insonning nafaqat ichki kurashi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi tortishuvlar, balki hayot mazmunni anglash, adolat, o'z-o'zini tarbiyalash, rostgo'ylik kabi qadriyatlar tasvirlanadi. Asardagi misralar shunchalik tabiiy ohangda tarjima qilinadiki, o'quvchi o'zini asarning ichida his qiladi, tuyg'ularni anglaydi.

Senga faqatgina bitta tilak, yor —
 Tamom begonadir o'zga bir dunyo.
 Mening ko'ksimdachi ikki yurak bor,
 Ikkisi bir-birin tan olmas aslo.
 Biri ona yerning mehriga to'lug',
 Vujudimni qilur tuproqqa payvand.
 Birining otashi quyoshdan ulug',
 Parvoz etmoq bo'lur yulduzdan baland.
 Qani endi faqat xayolda emas,
 Chindan ma'mur etsa taqdirim mani,
 Ko'kda ucholsaydim men ham bir nafas,
 O'zga bir olamni ko'rsaydim, qani!
 Qani, bo'lsa menda sehrli bir to'n,
 Kiysam-u yuksalsam yiroq va yiroq.
 Juldur bo'lganda ham u to'n men uchun,
 Shohlar libosidan edi avloroq.

"Faust" asaridan olingan ushbu misralarga ko'z tashlasak, Gyote she'rdagi insonning ichki dunyosi, orzulari va ziddiyatlarini tasvirlaydi. Erkin Vohidov esa bu asarni tarjima qilganda, shunchaki so'zlarni emas, inson qalbidagi kurashni ham olib o'tadi. "Mening ko'ksimdachi ikki yurak bor, Ikkisi bir-birin tan olmas aslo." Satrlari orqali insonning ikki xil holati – iri yerga bog'langan, hayotiy ehtiyojlarga to'la, ikkinchisi esa osmon sari intilgan, orzular bilan yongan holati tasvirlanadi. Aslida, har birimizda shunday ikki yurak bor: biri bizni real hayotga tortsa, yana biri orzular sari yetaklaydi. "Qani, bo'lsa menda sehrli bir to'n, Kiysam-u yuksalsam yiroq va yiroq." misralarida esa insonning erkinlikka, cheksiz parvozga, o'zini topishga bo'lgan intilishi ifodalanadi. Bundan anglashimiz mumkinki, "Sehrli to'n" bu orzu, bu ozodlik,

bu o‘zini anglash istagidir. Bu tuyg‘ular orqali shoir inson o‘z chegaralarini yengib, erkinlikka intilishi, o‘zini anglashini teran tasvirlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima qilingan asarda til o‘zgarsa-da, iztirob, orzu, ezgulik, erkinlikka intilish kabi umuminsoniy qadriyatlar o‘z ta’sirini yo‘qotmaydi. Erkin Vohidov o‘z tarjimalari bilan bizga, xalqimizga jahon adabiyotini o‘zbekona ohang, milliy qadriyatlarimiz va obrazlar orqali tanishtiradi, o‘zbek tilining naqadar boy va ta’sirchan ekanini asarlar orqali ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida tarjima sohasining rivojlanishi, yetishib chiqayotgan tarjimonlar uchun yangi bir metodik qo‘llanma sifatida Erkin Vohidovning tarjima asarlari asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero yozuvchi va adabiyotshunos Xurshid Davron aytanidek: “Erkin Vohidov tarjima qilgan asarlar asl nusxadan kam emas, ba’zan undan ham ta’sirchan bo‘lib chiqadi. U tarjima qilayotganida matnni emas, ruhni o‘zbek tilida jonlantiradi.”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin Vohidov "Tanlangan asarlar" 2019. "Sharq" nashriyoti
2. Erkin Vohidov "Faust" asari 2015. "Yangi asr avlodi" nashriyoti
3. Xurshid Davron kutubxonasi
4. Rasul Hamzatov "Otam bilan suhbat" (Erkin Vohidov tarjimasi). Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
5. Erkin Vohidov "Ruhlar isyoni" "G‘afur G‘ulom" nashriyoti, 1988.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2005